

O'ZBEK MILLIY ESTRADA IJROCHILIGINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Urazaliyev Bobur Rajabovich

O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy Estrada san'ati institute "Estrada xonandaligi" kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek milliy estrada ijrochiligining tarixiy taraqqiyot jarayoni, uning o'ziga xos jihatlari va rivojlanish tendensiyalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. "Estrada" tushunchasi bilan ifodalanadigan musiqiy yo'nalishlar o'zining rang-barangligi va zamonaviyligi bilan ko'plab tinglovchilar e'tiborini jalb etmoqda. Estrada san'atining shakllanish va rivojlanish bosqichlarini o'rganishda, mazkur yo'nalishni ifodalovchi atamalar hamda ularning amaliy sahna ijrochiligida keng qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *estrada, janr, tomosha, sahna san'ati, ohang, qo'shiq.*

Аннотация: *В данной статье с научной и теоретической точки зрения анализируется историческое развитие узбекской национальной поп-музыки, её специфические особенности и тенденции развития. Музыкальные направления, представленные концепцией «поп», привлекают внимание многих слушателей своим разнообразием и современностью. При изучении этапов формирования и развития поп-арта большое значение имеют термины, обозначающие это направление, и их широкое использование в практическом сценическом исполнении.*

Ключевые слова: *поп-музыка, жанр, зрелище, исполнительское искусство, мелодия, песня, танец.*

Yosh avlodning dunyoqarashi, estetik didi va ma'naviy tarbiyasini shakllantirishda estrada san'ati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois o'zbek estrada san'atini milliy ohang va an'analar bilan boyitishga alohida e'tibor qaratish dolzarb masalalardan biridir.

Chunki milliy musiqa san'ati mazmunan nihoyatda boy bo'lib, katta ashula, maqom, o'lan, yalla, alla, yor-yor, qo'shiq, terma, lapar kabi janrlar o'ziga xos badiiy joziba, ritmik harakatchanlik hamda nafis ohanglari bilan o'zbek xalqining betakror urf-odatlarini va milliy qadriyatlarini musiqiy ifoda orqali namoyon etadi.

Ushbu musiqiy meros inson qalbiga bevosita ta'sir ko'rsatib, uni chuqur his etish, nozik tuyg'ular bilan idrok qilish va estetik zavq olish imkonini beradi.

Ommabop musiqa keng ma'noda aholi qatlamlari orasida keng tarqalgan va mashhurlikka ega bo'lgan ko'ngilochar musiqiy asarlarning umumiy ifodasidir. U zamonaviy xonanda va sozandalar ijrochilik repertuarida uchraydigan, uslub va janr jihatidan rang-barang yengil musiqiy shakllarni o'z ichiga oladi.

Bunday musiqaga xalq musiqasi an'analariga mansub kuy va qo'shiqlar, havaskor ijodkorlar tomonidan yaratilgan mualliflik asarlari, shuningdek, bastakor va kompozitorlarning tinglovchi didiga mos, ommabop va ko'ngilochar xarakterdagi

asarlari kiradi. Ommabop musiqa tarixiy tushuncha sifatida XX asr madaniyatida qaror topgan musiqa turi sanaladi. U asosan yoshlar auditoriyasiga yo'naltirilgan pop va rok musiqasi, havaskorlik ijodi hamda estrada musiqasi kabi yo'nalishlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Mazkur davrda yuz bergan ijtimoiy va madaniy hayotdagi tub o'zgarishlar ommabop musiqaning taraqqiy etishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qildi. Natijada shaharlarda istiqomat qiluvchi aholi turmush tarzida bo'sh vaqt hajmining ortishi bilan bog'liq holda, uni mazmunli tashkil etish maqsadida muntazam ravishda o'tkaziladigan ko'ngilochar konsertlar va sahna tomoshalari keng miqyosda rivoj topdi.

Dastlab ommaviy musiqa shaharlardagi hiyobonlar, istirohat bog'lari, kabare va restoranlar kabi ommaviy hordiq chiqarish maskanlarida ijro etilgan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan maxsus bunyod etilgan teatrlar, studiyalar, myuzik-hall va diskobarlar faoliyatida muhim o'rin egallay boshladi. Yangi tashkil etilgan badiiy jamoalarning repertuari va ijodiy faoliyatida ommabop musiqaning asosiy shakl va ko'rinishlari yetakchi yo'nalish sifatida namoyon bo'ldi.

Hozirgi dunyo madaniyatida ommaviy musiqaning keng yoyilishida, ayniqsa, OAV, ya'ni teleradiokompaniyalar, ijtimoiy, ovoz yozuvchi hamda eshittiruvchi moslamalar, ya'ni magnitofon, grammofon, videomagnitofonlarning kashf qilinishi yirik ta'sirga ega bo'lgan.

Alohida ta'kidlash lozimki, ommaviy musiqa tinglovchidan chuqur musiqiy bilim, maxsus tayyorgarlik yoki yuqori darajadagi badiiy malakani talab etmaydigan asarlardan tarkib topadi. Ushbu musiqiy namunalar soddaligi, musiqiy tilining ommabopligi, ya'ni tarjimasiz ham oson idrok etiladigan ohanglarga yaqinligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, ular ko'pincha raqsobop ritmlar, harakatchanlik va o'ynoqi xarakterga moyilligi orqali keng tinglovchilar auditoriyasiga tez va samarali ta'sir ko'rsatadi.

Estrada san'atining shakllanish jarayonini tahlil qilar ekanmiz, uning ildizlari xalq og'zaki ijodi bilan uzviy bog'liq ekanini ko'rish mumkin. Shu bilan birga, estrada san'ati tijorat va ommabop san'at turi sifatida XIX asrda Yevropaning yirik shaharlarida vujudga kelib, muayyan ijtimoiy-madaniy muhit ta'sirida rivojlangan. Estrada san'atining yetakchi shakli sifatida ma'lum joylarda muntazam va doimiy tarzda tashkil etiladigan estrada konsertlari e'tirof etiladi. Ushbu konsertlar yakka yoki bir nechta xonanda, artist, raqqos hamda so'z ustasi aktyorlarning mazmunan tugallangan, turli yo'nalishdagi qisqa chiqishlaridan tarkib topadi.

Estrada tomoshalari ifoda vositalarining yorqinligi va lo'ndaligi, sahnaviy o'ziga xosligi, shuningdek, ijrochilarning tomoshabinlar bilan bevosita muloqotda bo'lishi bilan ajralib turadi. Ayrim hollarda bunday dasturlar boshlovchi tomonidan umumiy mavzu asosida jamlangan holda taqdim etiladi.

Estrada tomoshalari Ovropoda avvaliga restoran va kafelarda, vaqt o'tishi bilan maxsus moslashtirib qurilgan teatr binolari hamda boshqa joylarda o'tkazilgan.

Ularda xonandalar, raqqos va raqqosalar, qo'shiqchilar, so'z ustalari, shu bilan birga ko'zboylog'ichlar, akrobatlar qatnashgan Bugungi kunda estrada sahnalarida feleton, hajviy hikoya, monolog kabi nutq janrlari, raqs, estrada qo'shiqlari, ko'plab sirk tomoshalari, masalan jonglyorlik, akrobatika, fokus, teatr miniatyuralari, qo'g'irchoqbozning chiqishi, pantomima va boshqalar faoliyat yuritmoqda.

Sharq mamlakatlarida bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham estrada san'ati izchil rivojlanib bordi. Bu jarayonda an'anaviy san'at namunalari sahna talablari asosida moslashtirilib, zamonaviy shaklda talqin etildi. Jumladan, Yusufjon qiziq Shakarjonovning askiya chiqishlari, Muhiddin Qoriyoqubov va Tamaraxonim ijrosidagi xalq laparlarining sahnaviy ko'rinishlari bunga misol bo'la oladi. Shuningdek, milliy janrlar asosida yangi sahna shakllari yaratilib, Mukarrama Turg'unboyeva va Usta Olim Komilov hamkorligidagi "Pilla" ("Paxta") kabi ommaviy raqslar yuzaga keldi. O'zbekiston estradasi xorijiy uslublar — jaz, estrada orkestri va myuzik-hall yo'nalishlarini o'zlashtirish orqali boyidi. O'zbek estrada teatri esa 1956-yildan 1996-yilgacha davlat miqyosida faoliyat yuritdi.

O'zbekistonda estrada san'atini rivojlantirish jarayonida 1996-yildan boshlab yakka ijrochilar hamda estrada jamoalari faoliyatini muvofiqlashtirish vazifalari O'zbeknavo birlashmasiga yuklatildi. Shu davrdan e'tiboran estrada san'ati maxsus ta'lim tizimiga mustaqil o'quv yo'nalishi sifatida joriy etildi. Xususan, 1996-yildan boshlab Toshkent estrada-sirk kolleji, O'zbekiston davlat konservatoriyasi hamda boshqa san'at ta'lim muassasalarida estrada fakultetlari tashkil etilib, ular bugungi kunga qadar uzluksiz faoliyat olib bormoqda. Estrada musiqasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab alohida janr va san'at turi sifatida shakllana boshladi. Bu davrda ushbu yo'nalishga mansub ilk asarlar estrada-simfonik orkestr jo'rligida ijro etilgan bo'lsa, keyinchalik elektr musiqiy cholg'ular, gitaralar, organ va boshqa cholg'ulardan tashkil topgan ansambllarda amalda qo'llanila boshlandi. Garchi sanab o'tilgan cholg'ular o'zbek milliy musiqa cholg'ulari oilasiga mansub bo'lmasa ham, ular orqali milliylikni aks ettirish maqsadida turli izlanishlar olib borilib, natijada milliy estrada san'ati ko'rinishlari paydo bo'ldi. Shu bilan birga, milliy musiqa ohanglarini yaratishda milliy cholg'ulardan foydalanish keng miqyosda tatbiq etilmagan edi. So'nggi yillarda milliy musiqa cholg'ulari ijrosi Madaniyat vazirligi qoshidagi estrada-simfonik orkestr faoliyatida o'z ifodasini topmoqda [4;36]. O'zbek milliy mumtoz musiqasi ijrochilari qatorida estrada xonandasining mutaxassislik darajasi millatning ichki dunyosi hamda badiiy g'oyasini anglab yetish bilan birgalikda, xalqning o'tmishi, ijtimoiy yangilanishlar va ma'naviy ehtiyojlar asosida qondirilishi eng asosiy va dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'ziga hos ma'lum bo'lgan qandaydir bir musiqiy oqimga intilish bilan belgilanmaysligi kerak, bilaks davrga hos badiiy g'oya, xalq merosiga taalluqli holda

kechishi ayni muddao sanaladi. Estrada musiqasi xalqning milliy ma'naviyati asosida shakllangan va inson ruhiyatiga orom hamda yengillik olib kiruvchi janr sifatida e'tirof etiladi. O'zbek milliy estrada san'ati sohasida faoliyat yuritayotgan ko'plab ijodkorlar boshqa xalqlarga mansub zamonaviy estrada ohanglaridan namuna olib,

ularni moslashtirish orqali o'z yo'lini topishga intilmoqda. Shu bilan birga, ba'zi nomutaxassis sanalgan estrada xonandalari o'z ijodida ijro etilajak asarning so'zini ham, ohangini ham o'zi yaratib kuylashga harakat qilmoqda, va afsuski, bunday hollarning soni kundan-kunga ortib bormoqda. Xonandalarning ovozidagi kamchiliklar va nuqsonlarni zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida bartaraf etish, shuningdek, turli tadbirlarda fonogrammadan foydalanish ortiqcha ko'paygan. Natijada, haqiqiy xonandalar va cholg'u ijrochilarining safi sezilarli darajada kamaymoqda. Estrada san'ati tobora rivojlanib, xalq orasida muxlislari soni ortib bormoqda. Bugungi zamonda "estrada" atamasi bilan nomlanayotgan musiqiy ko'rinishlar tobora ko'plab muhlislarni o'ziga rom etib

kelmoqda. Shuningdek, ayni vaqtda tele va radio to'lqinlaridagi namoyishlar hamda har xil bayram shodiyonalarining dasturlaridan joy olgan bu musiqalar zamonaviy yoshlar bilan birgalikda turli yoshdagi minglab tinglovchilarning shuuri hamda ma'naviy dunyosiga seziladigan darajada o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Estrada san'atining rivojlanib shakllanish jarayonidagi ilk holat, bu san'at yo'nalishini aks ettiruvchi va amaliy sahnada bepoyon qo'llanilayotgan nomlar bilan aloqadorligini alohida ta'kidlash muhim. O'zbek musiqiy madaniyati aslida bir necha yuz yillik tarixiy ildizlarga ega. Bugungi kunda uning turli janrlari va yo'nalishlari kengayib bormoqda. Har bir san'at turi singari, o'zbek estrada san'ati ham aniq asosga ega bo'lib, u professional qo'shiqchilik san'atiga tayangan. Xalq orasida XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab "estrada san'ati", "estrada" va "estrada konserti" kabi atamalar musiqa olamiga kirib kelgan. Ushbu jarayon Rossiyadan Turkiston shaharlariga gastrol safari bilan kelgan musiqiy jamoalarning chiqishlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Asta - sekin XX asrning 20-30-yillarida yurtimizda tashkil topgan "Musiqiy etnografik ansambl", "Ashula va raqs guruhi", "Mashshoqlar to'dasi" kabi jamoalarning xalqqa namoyish etgan sahna tomoshalarini "konsert" yohud "estrada konserti" deb e'lon berish odatiy holga aylana boshladi. O'sha vaqtdan e'tiboran musiqa ijrochilari orasida, shuningdek, xalq orasida ham huddi shunday "konsert", "ansambl" va "estrada" kabi atamalar ommalashishni boshladi. Samarqand shahrida 1927-yilda Ali Ardobus Ibrohimov yosh havaskorlardan iborat bo'lgan "Ko'k ko'ylaklar" deb nomlangan jamoaning ansambl konserti namoyishini "estrada konserti" deya e'lon beradi. 1906-1987 yillarda yashab ijod etgan Tamaraxonim O'zbekistonda zamonaviy milliy estrada san'atining shakllanishi va rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. XX asrning 40-yillaridan boshlab Yevropa uslubidagi estrada san'ati turlari mamlakatimizda amaliyotga kirib keldi. Bu jarayonda Leningrad va Moskva estrada jamoalari namunasi asosida rus san'atkorlarning tashabbusi bilan yirik madaniyat saroylarida konsertlar o'tkazildi. Toshkentda 1940-yilda M. Jolkov rahbarligida "Music-hall" estrada jamoasi, 1942-yilda O'zbekiston davlat filarmoniyasi estrada ansambli va 1944-yilda N. Zinin rahbarligida "Simfo-jaz orkestri" tuzildi. Ushbu ansambllar dasturlarida rus kompozitorlarining cholg'u va qo'shiqlari ijro etilgan. 1950-yillardan boshlab O'zbekistonda estrada san'ati rivojlandi. Enmark Salixov va Botir Zokirov bu yo'nalishning birinchi asoschilari sifatida

tanilgan. 1958-yilda O'zteleradio qoshida estrada orkestri tashkil etildi. Kompozitorlar E. Salixov, E. Qalandarov, Sh. Ramazanov, M. Leviyev va boshqalar dastlab xalq folklor qo'shiqlarini estradaga moslashtirib, keyinchalik o'z ijodlarini ham shu yo'nalishda davom ettirdilar. Ra'no Sharipova, Botir Zokirov, Luiza Zokirova, Muhabbat Shamayeva, Yunus To'rayev kabi xonandalar ularning qo'shiqlarini ijro etib, estrada san'atini yanada rivojlantirdilar. Ushbu davrda Mutal Burxonovning Botir Zokirov ijrosidagi "Maftun bo'ldim" asari yetuk mualliflik qo'shiqlari sifatida e'tirof etildi. Botir Zokirovning "Muhabbat", "Go'zal qiz", "Jayron", "Arab tangosi" kabi qo'shiqlari milliy estrada qo'shiqchiligidagi noyob topilmalar sifatida bugungi kunda ham namunaviy hisoblanadi.

1970-yillarda ommaviy musiqa yo'nalishida bitmusiqa keng tarqaldi. Botir Zokirov va Yunus To'rayev hamkorligida tashkil etilgan "Toshkent music hall" dramatik spektakllar va teatrlashtirilgan konsertlar orqali vokal-cholg'u ansambllarini shakllantirish va yosh estrada xonandalarini yetishtirishda muhim markaz vazifasini bajardi. E. Qalandarov, E. Salixov, G. Xoliqov va A. Kalvarskiy kabi kompozitorlar estrada yo'nalishida samarali ijod qilgan. Yangi ijrochilar va guruhlar avlodi estrada san'atida shakllanib, o'zbek estrada simfonik orkestrlarining faoliyati orqali zamonaviy estrada musiqa san'ati yanada rivojlandi. An'anaviy xalq musiqa namunalari yengil ohanglar va raqsobop usullarda ijro etilishi bilan o'zbek estrada san'atining milliy asosini yaratdi va milliy ohanglar bilan boyituvchi muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. Botir Zokirov o'zbek milliy estrada qo'shiqchiligining tamal toshini qo'ygan bo'lib, uning izdoshlari va zamondoshlari Yu. To'rayev, S. Rahimov, A. Iyoshpe va boshqalar milily kuylash uslubini o'zbek estradasi sahnasida sintezlashtirishi orqali uni shakl jihatidan ham, mazmun jihatidan ham uyg'unlashtirishga erishganlar. Mustaqillik yillarida ijod qilinayotgan qo'shiqlar Istiqlol, Vatan, tabiat, do'stlik va muhabbat mavzulariga bag'ishlangan. Erkin Vohidov raisligidagi Kengash milliy estrada san'atini rivojlantirish va muvofiqlashtirish vazifalarini belgiladi. Mashhur asarlar: Nuriddin Haydarov "Men nechun sevaman O'zbekistonni?", Yulduz Usmonova "O'zbekiston", "Xalqim", "Dunyo", Nilufar Rahmatova "O'zbek elim", Sevara Nazarxon "Vatanim", Gulsanam Mamazoitova "O'zbekiston-ona tuproq".

Yoshlar orasida estrada va shou-biznesga qiziqish ortib borayotgan bo'lsa-da, ko'plab yangi ijrochilar nima ijro qilayotganini yoki nimani yetkazmoqchi ekanini to'liq anglamaydi, bu esa milliy musiqiy tafakkurga yetmagan auditoriya orasida xavotir uyg'otadi. Yurtimiz iste'dodli yoshlarga boy. Bu yoshlarning bemalol ijod qila olishi uchun mamlakatimizda juda ko'plab sharoitlar mavjud. Ayniqsa, "O'zbekiston - Vatanim manim", "Yagonasan, muqaddas Vatan", "Nihol", "Yangi avlod", "Yangi nomlar", "Kelajak ovozi" kabi ko'rik - tanlovlar hamda jahon miqiyosidagi festivallar iqtidor va iste'dodi bo'lgan yoshlarni tanob olishga imkon bermoqda.[2;40-45]. Biroq, afsuslanarli tomoni borki, bu san'at yo'nalishiga maxsus tayyorgarlik ko'rmay, ta'lim va bilim egallamay turib kirib kelayotgan yoshlar ham yo'q emas. Mana shu kabi savodi chala xonandalar sababli ma'nosi sust, to'mtoq matnli qo'shiqlar kundan kunga ko'payib bormoqda. Bu

haqda OAV ham bong urmoqda, mutaxassislar fikr bildirmoqda. Bugungi kunda qo'shiq ijrochiligi san'ati va yosh xonandalar oldida bir qator dolzarb masalalar mavjud. "Hofizning so'nggi xonishi" maqolasida Professor Sh. Yusupov ustoz san'atkorlar Shoqosim va Shoolim Shojalilovlar, ularning ustozlari Jo'raxon Sultonov hamda Komiljon Otaniyozovning san'atkorona odobi, hurmat va iltifotlarini ibratli voqealar orqali e'tirof etgan. Milliy estrada ijrochilik maktablarini rivojlantirish va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida, 2020-yil 2-dekabrda PQ-4908-son qarorga asosan O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzurida Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti tashkil etildi. Ushbu institutning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar qayd etildi:

- Milliy estrada yo'nalishida malakali mutaxassis va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash hamda ularning ilmiy-ijodiy faoliyat olib borish imkoniyatini yaratish;
- Atoqli bastakor va kompozitorlar, xonanda va sozandalar ijodini o'rganish hamda milliy estrada uchun o'quv-uslubiy adabiyotlar yaratish, musiqiy asarlarni notaga olish;
- Milliy estrada bo'yicha amaliy va ijodiy tadqiqotlar olib borish, shakllangan maktablarning ijro uslublari va an'alarini tiklash va rivojlantirish;
- milliy estrada yo'nalishida zamonaviy ijro namunalarining "Oltin fondi"ni yaratish;

- xalqimiz, xususan, yosh avlod ongida milliy estrada vositasida milliy o'zlikni anglash tuyg'usi, yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish;

Qo'shiq millat madaniyatini aks ettiradi, xonandalar esa xalqning orzu-umidlarini ifodalab, ertangi kunga ishonch uyg'otadigan asarlar yaratishda doimiy izlanishlari va ustozlar sabog'idan ibrat olishlari zarur. Haqiqiy ijodkor qalbi uyg'oq bo'lib, shunday navolar xalq ko'ngliga yetadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Panjiyev Q., Azizov R., "Estrada qo'shiqchiligi yoshlarni tarbiyalashning ma'naviy vositasi sifatida", "Zamonaviy ta'lim" 7-son, 2018 y.
2. Mannopov S. O'zbek xalq musiqa madaniyati. O'quv qo'llanma. - T.: «Yangi asr avlodi», 2004. 40-45 b
3. Yusupov Sh. Hofizning so'nggi xonishi. // «Teatr» jurnali, 2010, 4-son.
4. Panjiyev Q., Azizov R., "Estrada qo'shiqchiligi yoshlarni tarbiyalashning ma'naviy vositasi sifatida", "Zamonaviy ta'lim" 7-son, 2018 y 36 b.